

MANGU SAVOLLARGA NAVOIY BERGAN JAVOBLAR (YOKI "ABRORLAR HAYRATI" NI O'QIB...)

Ulug'bek Hamdamov

*O'zR FA O'TAFI bo'lim mudiri,
filologiya fanlari doktori, professor*

Abstract

"Hayrat ul-abror" is the first epic of "Khamsa" in which philosophical-ethical, religious-mystical, social-political, historical issues are discussed in the spirit of teaching. Although the stories in the epic express philosophical and moral views, in essence, they repeatedly call upon a person to achieve perfection with virtues such as perfection, knowledge, faith, contentment, and justice. The article discusses the issues raised in the book "Abrorlar Hayrat" by Academician Abdulla Azam, comments on the main idea of "Hayrat ul-Abror", and the essence of life.

Key words

Alisher Navoi, "Hayrat ul-Abror", classic literature, philosophical views, Eastern literature, treatise, epic, poem, content, explanation, analysis, conclusion, human, teachings, heritage.

Mir Alisher Navoiy, ta'bır joizligiga komil ishonch bilan aytish mumkinki, turkiy adabiyotning eng baland tog'idir. Mutafakkir shoir asarlarining adekvat tarjimasini amalga oshirib borar ekanmiz, uning jahon adabiyoti arenasidagi mavqeい ham borgan sari ortib bormoqda – bunga shubha yo'q. "Alisher Navoiy bobomizga dunyoning yirik-yirik shahrlarida haykal qo'yilgan" deya xotirjam tortib bo'lmaydi, haykallar nafaqat ulug' shoirga ehtirom, ayni paytda, u – siyosiy akt, xalqlar o'rtaSIDAGI do'stlik ramzidir. Biz hazrati Navoiy dahosiga tikilgan ehtirom haykallarini dunyo o'quvchilarining naq yuraklariga qo'yish uchun g'ayrat ko'rsatmog'imiz lozim. Toki, ular Navoiy asarlarini ko'ngil mulklari-yu dunyoga boqish tarzlariga aylantirib yashasinlar! Buning uchun esa, Alisher Navoiy asarlari mazmun-mohiyatini, uning yuksak parvozlarini, avvalo, o'zimiz tushunib yetmog'imiz va qadrlamog'imiz lozim bo'ladi.

Har gal Navoiy va uning asarlari to'g'risida mulohaza yuritganimda, xayolimda cheksiz ummon mavjlanadi. Faqat aksar zamondosh o'quvchi uchun bu ummon yuzasini muz qoplagan. Bas, ular muz qobig'ini yorib, ichkariga kirishda o'ziga yarasha qiyinchilik sezishadi. Zero, bugungi kun bilan Navoiy davri o'rtasida 500-yillik zamon mavjud. Boz ustiga, makon

farqi mavjud. Xohlaymizmi, yo'qmi, zamon va makon o'z ishini qiladi – o'rtada muzlik qatlamini vujudga keltiradi. "Muz qatlami" deganimiz, avvalo, ulug' shoir asarlarida ko'p uchraydigan arabcha-yu forscha so'zlar, davrga xos bo'lgan dunyoqarash-u tushunchalar, qolaversa, ramz-u majoz, shuningdek, g'oya, motiv va uslub masalasi bo'lib, o'quvchi ta'kidlangan zamon-u makon masofasi tufayli ularni yaxshi anglab yetmaydi, natijada ummonga sho'ng'ib, u yerdag'i dur-u javohirotdan yetaricha bahramand bo'lolmaydi. Shu yerda g'avvoslarga ehtiyoj tug'iladi. G'avvoslar, bu o'rinda, navoiyshunoslardir. Har qandaylari emas, albatta, haqiqiylari nazarda tutilmoqda. Chunki shunday "shunos"lar borki, ular o'quvchini Navoiydan uzoqlashtirib yuborsa yuboradiki, aslo yaqinlashtirmaydi.

O'zbekistonda alohida "Navoiyshunoslik" fanining yuzaga kelishi ham bejiz emas. Zero, cheksiz ummonni kashf qilib borish bir necha olimning emas, balki butun boshli olimlar o'rdusining ishi. Shu ma'noda, Navoiyni o'rganish bir butun tizimga aylangandagina o'zining biz kutgan mevasini beradi.

Akademik Abdulla A'zamning 2021-yilda chop etilgan "Abrorlar hayrati" kitobida qo'yilgan masalalar, yuritilgan mulohazalar kishini Navoiy va uning muazzam merosi to'g'risida takror-takror o'ylashga undaydi. Zero, kitobga so'zboshi bitgan yozuvchi Xayriddin Sultonov qayd etganidek:

"Daho san'atkor asarlarini necha yuz yillar davomida tushunib o'qigan va bugun ham anglab o'qiyotgan insonlar, qaysi millat va elat vakillari bo'lmasin, dunyoning qaysi burchagida yashamasin, qalbini og'ritib qiyayotgan savollarga, o'z davrining barcha ma'naviy va ruhiy muammolariga javob topa oladi" (Qarang: A'zam A. "Abrorlar hayrati". Toshkent: G'.G'ulom nomidagi nashriyot-matbaa ijodiy uyi, 2021. B. 4).

Darhaqiqat, mumtoz adabiyot shuning uchun ham mumtozki, u barcha davrlarning og'riqli savollariga javob izlaydi. Nafaqat izlaydi, balki topadi ham. U bu vazifani bajara olmay qolgan vaqtidan boshlab mumtozligini yo'qotadi. Shu ma'noda, Alisher Navoiyning to'rt qatorli ruboisiidan tortib necha-necha o'n ming misrali "Xamsa"sigacha bo'lgan barcha asarlarida zamondosh insonning ham ko'ngil va tafakkur "yara"lariga shifo bo'lguvchi malhamlarni ko'rish mumkin. Albatta, Navoiy hazratlari mangu savollarga javob izlashda yolg'iz emas edi, balki mutafakkir shoirga ungacha yaratilgan buyuk Sharq adabiyoti, unda aks etgan falsafiy qarashlar o'ziga xos mayoq vazifasini o'tagan. Xo'sh, ular qanday savollar edi? Kitob muallifi Abdulla A'zam yozadi: "Alisher Navoiy bundan besh yuz yil avval

- *Inson nima?* (*Muallif falsafa fanining vazifasidan kelib chiqib, savolni "Inson kim?" deb emas, balki "Inson nima?" deya qo'ymoqda - U.H.*)
- *Odamning hayvondan qanday farqi bor?*
- *Odam odamdan nimasi bilan farq qiladi?*
- *Odam nima uchun dunyoga keladi?*
- *Odamning hayotidan ma'no nima?*

– *Odam qanday yashashi kerak?*

– *Odam vafotidan so'ng nima bo'ladi? –*

degan fundamental savollarga javob topgan, ularni mukammal falsafiy ta'limotga aylantirgan va "Hayrat ul-abror" risolasida bayon qilgan" (O'sha asar, 4-bet).

Olim "Hayrat ul-abror" dostonining she'riy shaklidan emas, balki falsafiy mazmunidan kelib chiqib uni "risola" deb ataydi. Bunga yuqorida qo'yilgan umuminsoniy masalalarga hazrat Navoiyning yuksak va asosli javoblari borligi bilan izohlaydi. Nazarimda, Abdulla A'zamning birlamchi sohasi matematika bo'lgani bois ham, yuqori darajadagi aniqlik va mantiq taqozosiga ko'ra ish tutib, kitobdagi bosh savollarni chiqarib oladi va esse-tadqiqot davomida ularga javob izlaydi. U shu o'rinda xuddi Shayx Fariduddin Attorning "Mantiq ut-tayr", Alisher Navoiyning unga ergashib bitgan "Lison ut-tayr" idagi Simirug'ni izlagan qushlar misol chirpinib, savollarga javoblarini doston-risola kengliklaridan, shuningdek, shoirning boshqa asarlari qatidan qidiradi. Qidirar ekan, o'sha mashhur qushlar kabi ko'pdan ko'p "vodiyy-u dovon"lar zahmatlaridan oshib o'tadi, ya'ni ulug' shoir, uning asarlari, tarjimayi holi, aruz vazni sirlari, shoir taxallusi ma'nolari hamda shu kabi ko'pdan ko'p bahsli masalalar bo'yicha o'z munosabatini bildiradi, izoh, tahlil va xulosalarini beradi. Bulardan kelib chiqqan holda, nihoyat, yuqorida ko'ndalang qo'yilgan savollar javoblariga yetib keladi: "Inson nima?" "Inson bu – Alloh o'z aksini ko'rish maqsadida oliy sifatlari aks etadigan ko'zgu vazifasini o'tash uchun yaratilgan mavjudot". So'ng keyingi savollarning javoblariga o'tadi:

– *Odamning hayvondan qanday farqi bor? Odamning hayvondan farqlovchi belgi – ruh.*

– *Odam odamdan nimasi bilan farq qiladi? Odam odamdan ko'ngli bilan farq qiladi...*

– *Odam nima uchun dunyoga keladi?*

Ko'ngil "kosasi"ni "Hayrat ul-abror"da namunalari berilgan "may" bilan to'ldirib, uni Alloh sifatlari aks etadigan ko'zguga aylantirish uchun.

– *Odamning hayotidan ma'no nima? Ko'ngil ahli bo'lishga intilish.*

– *Odam qanday yashashi kerak?*

Umrini ko'nglida Alloh sifatlarini aks ettiradigan amallarga bag'ishlab.

– *Odam vafotidan so'ng nima bo'ladi?*

Hayoti davomida ko'ngil kosasini nima bilan to'ldirgani to'g'risida hisob beradi (Vallohu a'lam bis-savob)". (O'sha asar, 4-bet)

Ko'rinish turganidek, akademik Abdulla A'zam ulug' shoir Alisher Navoiy "Xamsa"sining ilk dostoni "Hayrat ul-abror"ni bejiz "falsafiy risola" deb atamabdi ekan. Unda chindan ham insonning dunyoga kelishi, qanday yashashi, nimalarga e'tibor berishi va o'rganidan keyin nima bo'lishi to'g'risida badiiy-falsafiy javob bor. Aytish mumkinki, Navoiyning bu o'gitlari inson uchun, uning hayoti uchun ham o'ziga xos dasturil amal, kilovuz, zamonaviy ibora bilan

aytganda, qo'llanmadir. Navoiy nafaqat "qo'llanma"ni yaratdi, ayni damda, u o'zi ilgari surgan g'oyalarga asoslanib umr kechirdi hamda qanday yashash kerakligining oliy namunasini ko'rsatib ham berdi. Ya'ni shoir o'z hayotida nazariya bilan amaliyotni birlashtirdi.

Kitob muallifi yakuniy xulosa sifatida yozadi: "Alisher Navoiyning falsafiy ta'lomi c'zbek xalqining mentalitetidan mustahkam joy olishi lozim – bu uni buyuk millatga aylantirar edi". E'tibor bering, xulosada buyuk millat bo'lish uchun ulug' Navoiyni tushunish kerakligini uqtirilmoqda. Bugun bizning ana shunday millat bo'lishga nechog'li ehtiyojimiz borligini yodga olsak, mutafakkir shoir ijodining aytib ado qilib bo'lmas ahamiyatini chuqur anglagan bo'lamiz.

Navoiyni "bashariyat shoiri" deymiz, bas, kitob muallifining ta'biri bilan aytganda: "Dunyo xalqlari Alisher Navoiyning ko'ngil falsafasi bilan tanishsa koshki – bu ezgulik yovuzlik ustidan g'olib bo'lishiga xizmat qilgan bo'lar edi" (O'sha asar, 196-bet). Mana, nima uchun Navoiy Navoiydir!... Mana, nima uchun u qoldirgan meros bugun ham yo'lchi yulduzdek nur taratib, insoniyatga yo'l ko'rsatmoqda.